

TASHQI BOZORLARGA INTEGRATIYASIYALASHUVNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA UNGA NISBATAN NAZARIY YONDASHUVLAR

Ozodova Farida Zarif qizi

Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtisodiy integratsiyaning mazmun-mohiyati, uning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati, shuningdek tashqi bozorlarga integratsiyalashuv va uning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy integratsiya, iqtisodiy o'sish, tashqi savdo, konsepsiyalar, mintaqaviy iqtisodiyot, bozor, siyosat, savdo, strategiya, tizim.

Аннотация

В данной статье рассматривается сущность экономической интеграции, ее значение в экономическом развитии, а также интеграция в зарубежные рынки и ее влияние на региональный экономический рост.

Ключевые слова: экономическая интеграция, экономический рост, внешняя торговля, концепции, региональная экономика, рынок, политика, торговля, стратегия, система.

Abstact

In this article, it is looked through the essence of economic integration, its importance in economic development, as well as integration into foreign markets and its impact on regional economic growth..

Keywords: economic integration, economic growth, foreign trade, concepts, regional economy, market, policy, trade, strategy, system

KIRISH

Mamlakatlar o'rtasidagi makro va mikro darajadagi aloqalar iqtisodiy o'sish va rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatib, tashqi savdo va iqtisodiy integratsiya ushbu strategiyalarning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Tashqi savdo mamlakatlardagi mavjud resurslardan samaraliroq foydalanishga hamda mahalliy bozorlaridan tashqari o'sish imkoniyatlariga erishishga yordam beruvchi iqtisodiy kengayishning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiy integratsiya esa savdoni liberallashtirishni rag'batlantirish va mamlakatlar o'rtasidagi to'siqlarni qisqartirish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa mintaqaviy savdo kelishuvlari va yagona bozorlar kabi tizimlarda kuzatiladi, mamlakatlar umumiy bozorlar yaratish va savdo to'siqlarini olib tashlash orqali mahsuldorlikni oshiradi.

Davlatning iqtisodiy siyosati asosan milliy iqtisodiyotga yo'naltirilganligi sababli, uning savdo siyosati ham shu yo'nalishda belgilanishi tabiiydir. Biroq zamonaviy iqtisodiyotning yuragi hisoblangan tashqi savdo va iqtisodiy integratsiya birgalikda harakat qilish va o'z manfaatlari yo'lida savdo yaratish negizida mavjud siyosatga zid harakatlarni ifodalaydi. Ammo ushbu zidlik mamlakatlarga ijobiy natijalarga qisqa muddatda erishishga yordam berdi.

Bugungi raqobatbardosh davrda xalqaro savdo yangi va inqilobiy yo'nalishlarga kirib bormoqda. Turli davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorliklarning ortib borishi va

liberallashtirish siyosatlari orqali kamsituvchi amaliyotlarning yo‘q qilinishi dunyo davlatlari iqtisodiyotini integratsiya qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlamoda.

Jahonning turli davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani o‘rganish 1950-yillardan buyon davom etayotgan bo‘lsa-da, bu muhim mavzuga oid tadqiqotlar va tanqidiy tahlillar ayniqsa 1980-yillardan boshlab sezilarli darajada ortdi. Xalqaro savdo katta o‘zgarishlarga duch keldi: ilgari mavjud bo‘lgan qat’iy va o‘zgarimas tartibdan moslashuvchan va zamonaviy, hisob-kitoblarga asoslangan tartibga o‘tdi. Rivojlangan mamlakatlarning ayrimlari mavjud qoidalar asosida harakat qilish orqali katta muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida savdo siyosatiga bo‘lgan qarashlar o‘zgarib bormoqda.

Iqtisodiy integratsiya – turli korxonalar, tarmoq yoki mamlakatlarning iqtisodiy faoliyat vositalari, ishlab chiqarish va bozor tizimlarini yaqinlashtirib, umumiy iqtisodiy makon yaratish jarayonidir. Bu jarayonda iqtisodiy subyektlar o‘rtasida resurslar, texnologiyalar va kapital birlashadi, to‘siqlar kamayadi, natijada mehnat va tovarlar bozorida mustahkam iqtisodiy aloqalar vujudga keladi¹.

Iqtisodiy integratsiya tarixda birinchi marta Germaniyada, aniqrog‘i Prussiya tomonidan amalga oshirilgan. 1834-yilda tashkil etilgan Germaniya bojxona ittifoqi (Zollverein) bu jarayonning boshlanishi hisoblanadi.

XIX asr boshlarida Germaniyada 39 ta mustaqil davlat mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z bojxona siyosatiga ega edi. Bu holat ichki savdoni qiyinlashtirgan. 1818-yilda Prussiya ichki bojxona to‘lovlarini bekor qildi va tashqi bojxona tarifini joriy etdi. Keyinchalik boshqa Germaniya davlatlari ham Prussiya tajribasini qabul qilib, o‘zaro savdoni osonlashtirishga harakat qildilar.

1834-yilda Prussiya boshchiligida Germaniya davlatlari umumiy bojxona ittifoqini tuzdilar. Bu ittifoq ichki bojxona to‘lovlarini bekor qildi, tashqi savdoni tartibga soluvchi yagona tarifni joriy etdi va umumiy savdo maydonini yaratdi. Natijada Germaniya iqtisodiyoti tez sur‘atlarda rivojlana boshladi, sanoat ishlab chiqarish hajmi oshdi va iqtisodiy integratsiya chuqurlashdi².

Tashqi bozorlarga integratsiya mintaqaviy iqtisodiyot doirasida bir qator muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bular qatoriga savdo to‘siqlarini kamaytirish, raqobatni oshirish, investitsiya oqimlarini kuchaytirish, infratuzilma va transport aloqalarini rivojlantirish, energetika va resurslarni boshqarish, xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash kabi masalalar kiradi. Mintaqaviy integratsiya orqali davlatlar o‘zaro iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtiradi, bu esa iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yordam beradi. Shu jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik hamda innovatsiyalarga cheklangan resurslar sharoitida erishish maqsadida ushbu sohada bir qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Yuqorida qayd etilgan fikrlar jahonning yetakchi olimlari va xalqaro ekspertlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Iqtisodiy integratsiya g‘oyasi qadimiy davrlarga borib taqalgan bo‘lsa-da, bu tushuncha iqtisodiyotga faqat Ikkinchi jahon urushidan keyin kirib keldi [1].

¹ <https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/iqtisodiy-integratsiya>

² <https://en.wikipedia.org/wiki/Zollverein>

“Iqtisodiy integratsiya” atamasining bir qancha ta’riflari mavjud [2]. Ushbu tushunchani mazmunan ochib berish va uni ommaga taqdim etishda ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, ularning qarashlari iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini yoritishda katta hissa qo‘shgan.

1-jadval

“Iqtisodiy integratsiya” tushunchasiga muallif yoki mualliflar jamoasi tomonidan berilgan ta’riflar¹

№	Muallif yoki mualliflar jamoasi	Berilgan ta’rif
1	Wilhelm Röpke (1899-1966)	“Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu turli milliy iqtisodiyotlar o‘rtasidagi savdo aloqalarining shunday ko‘rinishiki, bunda har bir bo‘g‘in o‘zaro manfaatli va erkin tarzda rivojlanadi va yagona iqtisodiyot singari faoliyat yuritadi” [3].
2	Jan Tinbergen (1903-1994)	“Integratsiya – bu xalqaro iqtisodiyotning eng maqbul tuzilmasini yaratish, sun‘iy to‘siqlarni olib tashlash va muvofiqlashtirish yoki birlashtirishning barcha zarur elementlarini ongli ravishda joriy etishdir” [4].
3	Peter Robson (1926-2020)	“Iqtisodiy integratsiya – bu institutlarga e’tibor qaratib, xalqaro iqtisodiy integratsiyani alohida milliy iqtisodiyotlarni yirikroq iqtisodiy bloklar yoki hamjamiyatlarga birlashtirishning institutsional shakli” [5].
4	Béla Alexander Balassa (1928-1991)	“Iqtisodiy integratsiya – bu integratsiya hududida kamsitishni yo‘q qilish” [5].
5	Jacques Pelkmans (1946-...)	“Iqtisodiy integratsiya – bu ikki yoki undan ortiq iqtisodiyotlar o‘rtasidagi iqtisodiy chegaralarni yo‘q qilish” [6].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va uning iqtisodiy o‘rnatilgan o‘rni, iqtisodiy integratsiyaning tashqi savdo bilan uzviy bog‘liqligi hamda tashqi bozorlarga integratsiyalashuvning mintaqaviy iqtisodiyotga ta’siri ilmiy va uslubiy nuqtai nazardan tadqiq etishda dialektik va tizimli yondashuvlar, qiyosiy va solishtirma tahlil hamda guruhlash usullari qo‘llanildi.

Iqtisodiyot sohalarining transformatsiyalashuvi sharoitida iqtisodiy integratsiyani mohiyatan tavsiflovchi nazariy yondashuvlarni ilmiy asosda tahlil qilish, tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda uni rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Shuningdek, maqolada tashqi savdo va iqtisodiy integratsiyaning iqtisodiy o‘rnatilgan ijobiy ta’siri xususida ham so‘z yuritiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashqi bozorlar va iqtisodiy integratsiya o‘rtasidagi munosabatlar mintaqaviy iqtisodiyotining o‘rnatilgan sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu jarayonlarning o‘zaro aloqasi turli ko‘rsatkichlar asosida tahlil etiladi (2-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

2-jadval
Tashqi bozorlarga integratsiyalashuvning iqtisodiy o‘shishga ta’siri¹

Tadqiqotchilar	Yil	Asosiy g‘oya	Asos
Viner	1950	Iqtisodiy integratsiya mamlakatlarga savdo siyosatlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi.	Iqtisodiy integratsiya mamlakatlarga savdo siyosatlarini uyg‘unlashtirish, umumiy bozorlar yaratish va kengroq iqtisodiy hamkorlik muhitini yaratish imkonini beradi, bu esa institutsional tuzilmalarni mustahkamlashga va rivojlanish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga olib keladi [8].
Solow	1956	Iqtisodiy o‘shish bevosita texnologiya bilan bog‘liq	Tashqi bozorlarga integratsiya texnologiya transferi va innovatsiyalarni tarqatishda asosiy omil hisoblanadi [9].
Romer	1990	Iqtisodiy integratsiya innovatsiya va texnologik rivojlanishni qo‘llab quvvatlaydi	Iqtisodiy integratsiya nafaqat tovarlar savdosini, balki kapital va axborot oqimlarini ham osonlashtiradi, bu esa innovatsiya va texnologik rivojlanishni rag‘batlantiradi [10].
Grossman & Helpman	1991	Savdo natijasida tadbirkorlar texnologiya va ishlab chiqarish usullarini va tartibini o‘rganadi	Rivojlanayotgan mamlakatlar savdo orqali ilg‘or texnologiyalar va ishlab chiqarish usullariga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin [11].
Sachs & Warner	1995	Tabiiy resurslar bilan savdoning integratsiyasi iqtisodiy o‘shishni tezlashtiradi.	Tabiiy resurslar bilan savdoning integratsiyasi, to‘g‘ri siyosat va institutlar bilan qo‘llab-quvvatlanganda iqtisodiy o‘shishni tezlashtirishi mumkin [12].
Motta & Norman	1996	Iqtisodiy integratsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va xalqaro savdoga ta’sir qiladi.	Iqtisodiy integratsiya bilan mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishi sanoat o‘rtasidagi savdoning rivojlanishiga va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning oshishiga olib keladi, natijada mintaqaviy iqtisodiy tarmoqlarda o‘rtacha o‘shish ro‘y beradi [13].

Integratsiya nazariyasi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida integratsiya mintaqaviy darajada nafaqat ishtirokchi davlatlarga, balki butun dunyoga foyda keltirishi ta’kidlangan. Iqtisodchi olim R. G. Lipsey “Erkin savdo mamlakatlarga o‘z mahsulotlarini eng arzon va samarali tarzda ishlab chiqarish imkonini beradi, bu esa butun dunyoda farovonlikni oshiradi”, deb hisoblagan [14].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy bozor integratsiyasi zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat savdo hajmining oshishiga, balki iqtisodiy o‘shishning tezlashishiga xizmat qiluvchi muhim

¹ Muallif ishlanmasi

omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har qancha sodda ko‘rinsa-da, uning eng oddiy shakli — erkin savdo hududlari ham murakkab va har doim ham ijobiy bo‘lmagan iqtisodiy ta’sirlarni yuzaga keltirishi mumkin. Integratsiya jarayonida savdoning yo‘nalishi o‘zgaradi, daromadlar qayta taqsimlanadi va ishlab chiqarish omillari erkin harakatlana boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Machlup F., 1976, A History of Thought on Economic Integration, [in:] Economic Integration: Worldwide, Regional, Sectoral, *ed.* F. Machlup, The Macmillan Press Ltd., London.
2. Jovanoviæ M.N., 2015, Economics of International Integration, Edward Elgar, Cheltenham, Northampton.
3. Ropke W., 1959, International Order and Economic Integration, D. Reidel Publishing Company, Dordrecht
4. Tinbergen J., 1954, International Economic Integration, Elsevier, Brussels
5. Robson P., 1998, The Economics of International Integration, Routledge, London–New York.
6. Pelkmans J., 1984, Market Integration in the European Community, Martinus Nijhoff Publishers, Hague.
7. Balassa B., 1961, The Theory of Economic Integration, Greenwood Press.
8. Viner, J. (1950). The Customs Union Issue. Carnegie Endowment for International Peace.
9. Solow M., The Quarterly Journal of Economics, Vol. 70, No. 1 (Feb., 1956), pp. 65-94
10. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5), S71-S102
11. Grossman, G. M., & Helpman, E. (1991). Innovation and Growth in the Global Economy. MIT Press.
12. Sachs, J. D. & Warner, A. M. (1995). Natural Resource Abundance and Economic Growth. NBER Working Paper Series, No. 5398
13. Motta, M. & Norman, G. (1996) Does Economic Integration Cause Foreign Direct Investment
14. Lipsey R.G., 1960, The Theory of Customs Unions: A General Survey, The Economic Journal, vol. 70, no. 279.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**